

# Dunyoda koronavirus tarqalishi bilan bog'liq vaziyat to'g'risida

So'nggi ikki kun ichida yer yuzi bo'ylab koronavirus infeksiyasi tarqalishi sur'ati qariyb 25-28 foizga pasaygani va tuzalganlar (242,5 ming kishi) soni 63,3 foizni tashkil etib, virus yuqtirgan odamlar (218 ming kishi) sonidan oshganiga qaramasdan, dunyodagi epidemiologik vaziyat tashvishli bo'lib qolmoqda. O'lim darajasi o'zgarishsiz qoldi - 3,8 foiz.

Markaziy Osiyo (Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston)da kasallanish ulushi butun dunyoda aniqlangan holatlar statistikasininghaliyam 1,09 foizini tashkil qilmoqda. Tuzalganlar ko'rsatkichi nisbati 1,2, o'lim holati nisbati esa 0,5 foizga teng.

Qozog'iston va Qirg'izistonda koronavirus infeksiyasi tarqalish sur'ati sezilarli darajada pasaydi. Kun davomida ushbu mamlakatlarda davolanganlar soni kasallanish yangi holatidan deyarli ikki barobar oshdi. Qozog'istonda tuzalganlar soni 2617 kishini, yangi kasallanish holatlari esa 1,158 tani tashkil etdi, Qirg'izistonda esa bu ko'rsatkich tegishli ravishda 816 va 412 ga teng. Tojikistonda kasallik tarqalishi dinamikasi, vafot etganlar va tuzalib ketganlar ulushi bir oydan beri o'zgarmayapti.

## Statistika

"Worldometers" ma'lumotiga ko'ra, 4-avgust soat 17:00 holatiga dunyoda kasallanganlarning umumiy soni 18 million 476 ming kishini tashkil etadi, 698,2 mingdan ko'proq odam vafot etgan.

Kasallanish holati eng ko'p qayd etilgan davlatlar: AQSH - 4 million 862,1 ming, Braziliya - 2 million 751,6 ming va Hindiston - 1 million. 855,3 ming kishi.

O'lim holati: AQSH - 158 929, Braziliya - 94 702, Meksika - 48 012), Buyuk Britaniya - 46 210, Hindiston - 38 971.

COVID-19 dan davolanganlarning umumiy soni 11 702 315 kishiga yetdi, bu umumiy miqdorning 63,3 foizini tashkil etadi.

## Markaziy Osiyodagi vaziyat

Qozog'istonda kasallanganlarning umumiy soni 93,820 nafar, 65 132 kishi sog'aygan, 1058 fuqaro vafot etgan.

Qozog'iston hukumati matbuot xizmatining xabar berishicha, hukumat eng muhtoj oilalar farzandlariga masofadan turib o'qish imkoniyatini berish uchun 500 mingga yaqin kompyuterlar yetkazilishini ta'minlaydi. Tuman, shahar va viloyatlar ma'muriyatiga mahalliy darajada kompyuter uskunalari bilan ta'minlash masalasini ko'rib chiqish bo'yicha qo'shimcha topshiriq berildi. Ta'kidlanishicha, 24 ming o'qituvchi shaxsiy kompyuterlarga ehtiyoj sezmoqda va shu sababli ularga vaqtincha foydalanish uchun maktab texnikasi beriladi.

Bosh vazir Asqar Mamin 20-avgustga qadar onlayn-rejimda respublika miqyosida ota-onalar majlisini tashkil etish bo'yicha topshiriq berdi. Majlisda bo'lajak o'quv jarayoni haqida tushuntirish beriladi. Xabar qilinishicha, yangi o'quv yilining birinchi choragida mashg'ulotlar masofadan turib o'tkaziladi, Bundan sanitariya normalariga qat'iy rioya qilish sharti bilan kichik formatdagi maktablar hamda boshlang'ich maktablarning "navbatchi" sinflari istisno.

Yangi o'quv yilida Qozog'istonda 3,3 milliondan ortiq o'quvchi, jumladan 396 mingdan ortiq birinchi sinf o'quvchisi tahsil oladi. Ulardan 2,6 million (79 foiz)i internet platformasi va televideniya foydalangan holda masofadan turib, 530 ming (17 foiz) bola "navbatchi" sinflarda va 157 ming nafardan ortiq o'quvchi (4 foiz) qishloqlarda shtatli rejimda o'qishni boshlaydi. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim asosan masofadan turib amalga oshiriladi.

Qirg'izistonda kasallikka chalinganlarning umumiy soni 37 541 ga yetdi, 28 743 kishi tuzaldi, 1 427 nafar fuqaro vafot etdi.

Tojikistonda 44 ta yangi holat aniqlanib, bemorlarning umumiy soni - 7 495 ga yetdi, 6 276 kishi sog'aydi, 61 fuqaro vafot etdi.

"Asia-plus" portali xabar berishicha, Tojikiston Dubay bilan muntazam aviareyslarni tikladi. Dubaydan birinchi reys 5-avgust kuni kechasi Dushanbega qo'nadi. Uni "Flydubai" avikompaniyasi amalga oshiradi. Ta'kidlanishicha, BAAga parvoz qilish uchun talab qilinadigan odatiy hujjatlar ro'yxati bilan bir qatorda, barcha yo'lovchilar parvozdan 72 soat oldin berilgan COVID-19 yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomani

taqdim etishlari kerak bo'ladi. Niqob taqish va qo'lqop kiyish majburiy. Tana harorati ko'tarilgan yoki kasallik alomatlari bo'lgan yo'lovchi samolyot saloniga kiritilmaydi. Tojikistonga kelib, barcha yo'lovchilar koronavirus uchun test topshiradi va natijalar chiqmaguncha karantin zonasida saqlanadi.

### **Dunyodagi so'nggi tendensiyalar.**

BMT Bosh kotibi Antonio Gutterishning ta'kidlashicha, koronavirus tufayli maktablar va oliy o'quv yurtlarining yopilishi 160 mamlakatda 1 milliardga yaqin talaba va o'quvchi uchun to'liq ta'lim jarayoni buzilishiga olib kelgan. Bu haqdagi ma'lumotlar BMT sayti (un.org)da joylashtirilgan. E'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab kamida 40 million bola maktabgacha ta'limdan mahrum bo'ldi. Daraslarni onlayn, radio va televideniye orqali o'tkazish barcha o'quvchilarni qamrab olish imkonini bermadi.

A. Gutterishning so'zlariga ko'ra, dunyo "avlodlar fojiasiga"ga duch kelmoqda, natijada ulkan insoniy salohiyat ishlatilmay, barbod bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, tengsizlik yana-da kuchayadi va ta'limda erishilgan barcha yutuqlar yo'qoladi.

Shu sababli Bosh kotib "Kelajagimizni qutqarish" shiori ostida yangi dastur ishga tushirilishini e'lon qildi. Ushbu dastur doirasida BMT barcha davlatlarni COVID-19 epidemiyasi jilovlanishi bilan oq maktablarni qayta ochishga chaqirmoqda. O'z navbatida, tashkilot turli mamlakatlar mansabdor shaxslariga bu borada ko'rsatma va qoidalar yuzasidan yordam berishni va'da qildi. Shuningdek, BMT mablag'larni taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilishda ularni asosan ta'limga sohasiga sarflashga da'vat qilmoqda.

Koronavirusga qarshi vaksinalar ishlab chiqish atrofidagi "ma'lumotlar shov-shuviga" izoh berib, BMT ko'pdan beri kutilgan vaksina panatseya bo'lmasligi mumkinligi haqida ogohlantirdi. Germaniyaning "Tagesschau" portali xabar berishicha, Tashkilot dunyo mamlakatlarini vaksina ko'rinishidagi "sehrli tayoqchaga" umid qilmaslikka chaqirmoqda, chunki vaksina global sa'y-harakatlarga qaramasdan, hech qachon paydo bo'lmasligi ham mumkin. JSSTning mansabdor shaxslari T. Gebreyesus va M.Rayan normal hayotga qaytish yo'li uzoq bo'lishini ta'kidlamoqda. Ular barcha davlatlarni niqob taqish, masofani saqlash va gigiyena qoidalari kabi choralarni so'zsiz bajarishga chaqirmoqda. Tashkilot mutaxassislarining fikricha, himoya niqoblari butun dunyodagi birdamlik timsoliga aylanishi kerak.

"Interfax" xabar berishicha, JSST koronavirusga qarshi kurashda Vyetnamdan o'rnak olish kerakligini ta'kidlamoqda. Tashkilot eksperti M.van Kerkxove ushbu mamlakat hukumati harakatlarini yuqori baholab, shunday dedi: Ular tezkor va keng qamrovli harakatni amalga oshirishdi, ularda ushbu virusni jilovlashda yordam beradigan tizim bor. Aynan shuni barcha mamlakatlarda ko'rishimiz kerak. Vyetnam ushbu virusga hech qanday imkoniyat qoldirmay, yirik fojea yuzaga kelishining oldini olish uchun qo'lidan kelgan barcha narsani qilmoqda.

Seshanba kuni Germaniyaning "Augsburger Allgemeine" gazetasi "Marburger Bund" Germaniya shifokorlari birlashmasi raisi S.Yona bilan intervyu e'lon qildi. Intervyuda u koronavirusning ikkinchi to'lqini Germaniyada haqiqatan ham boshlangani, ammo birinchi to'lqinga qaraganda yengilroq kechishi mumkinligini aytdi. "Marburger Bund" raisi koronavirus asta-sekin rivojlanib borayotgani tufayli Germaniya klinikalari ikkinchi to'lqinga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

### **Vaksina va dori ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar, tadqiqotlar**

Braziliya Oksfordning koronavirusga qarshi vaksinasi muqobil variantini ko'rib chiqmoqda, deb xabar beradi TASS. Xabar qilinishicha, mamlakat hukumati ushbu qarorni dori bo'yicha sinovlarni yakunlash o'ylagandan ko'proq vaqt talab etishi mumkinligi sababli qabul qilgan. Mamlakat Sog'liqni saqlash vazirligi rahbarining birinchi o'rinbosari E.Franku ta'kidlaganidek, vaksina tadqiqotning eng so'nggi bosqichida bo'lishiga qaramay, kech ishlab chiqiladi, degan ehtimol bor. Muqobilni topish mamlakatga vaksina ishlab chiqarishda ko'proq avtonomiyaga ega bo'lish imkonini beradi.

"The New York Times" amerikalik olimlar Prezident D.Tramp ma'muriyati vaksinani noyabr oyida bo'lib o'tadigan prezident saylovi oldidan ma'qullashni talab etishidan xavotirda ekanini ma'lum qildi. Gazeta ta'kidlashicha, vaksinani ishlab chiquvchilar yaxshi xabarlarni kutuvchi Oq uyning bosimi ostida qolmoqda. Ular kelgusi oylarda ushbu ishga "siyosat aralashishidan" qo'rqmoqda.

D.Tramp Amerikaning koronavirusga qarshi vaksinasi 2020-yil oxirigacha tayyor bo'lishini bir necha bor aytgan. Shu bilan birga vaksina ertaroq chiqishi ham ehtimoldan xoli emasligini ta'kidlagan. Myunxen

yuqumli kasalliklar klinikasi bosh shifokori Klemens Vendnerning so'zlariga ko'ra, koronavirusga qarshi antitanachalar mavjudligi bo'yicha o'tkazilgan dastlabki tadqiqotlar pandemiyani jilovlash uchun vaksina zarurligini ko'rsatdi. Uning aytishicha, "aholi infeksiya yuqtirishi darajasi shunchalik pastki, biz jamoaviy immunitetga ishonib qololmaymiz". Vaksinatsiyasiz jamoaviy immunitetga ega bo'lishning iloji yo'q. Mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, bugungi kunda antitanachalarni o'rganish aniq bir natija bermayapti. Ularning mavjudligi ilgari infeksiya yuqtirganlarni aniqlashga imkon berishi ma'lum, biroq bu Sars-CoV-2 ga nisbatan immunitet shakllanadi, degani emas. Tanadagi qaysi hujayralar va antitanachalar immunitetni shakllantirayotgani va jarayon qancha davom etishi haliyami noma'lum.

12 mingga yaqin qon donorlari namunalarni o'rganish antitanachalar ularning atigi 1,5 foizida mavjudligini aniqlash imkonini berdi. Germaniyada virus birinchi marta aniqlangan Shimoliy Reyn-Vestfaliyadagi Gangelt jamiyati aholisining atigi 15 foizida antitanachalar aniqlangan. Shuningdek, Avstriyaning Ishgl kurort shaharchasi orqali virus butun Yevropa bo'ylab tarqalgan bo'lib, mahalliy aholining atigi 42 foizida antitanachalar aniqlangan. K.Vendnerning so'zlariga ko'ra, bu virusning yana-da keng tarqalishining oldini olish uchun juda past ko'rsatkichdir.

Shu sababli, germaniyalik infeksiyalar koronavirus tarqalishi yo'lidagi eng ishonchli to'siq vaksinatsiya, ungacha zarur choralarini ko'rish - niqob taqish, ijtimoiy masofani saqlash va gigiyena qoidalariga rioya qilish kerak, deya ta'kidlagan.

### **COVID-19 ning salbiy oqibatlarini kamaytirish va karantindan chiqish choralari**

Germaniyaning "Tagesschau" portali yozishicha, Avstraliyaning Viktoriya shtatida karantin qoidalariga rioya qilmaslik uchun jazo kuchaytirildi. Endi o'zini o'zi yakkalash tartibini birinchi marta buzganlarga tahminan 3,5 ming dollar jarima solinadi. Takroran buzganlik uchun esa 14 ming dollargacha jarima solinishi mumkin. Bunday choralar shtatda koronavirus tarqalishi jadallashgani tufayli ko'rildi.

Shtat bosh vaziri D.Endryusning so'zlariga ko'ra, koronavirus bilan kasallanganlarning taxminan uchdan bir qismi politsiyachilar tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar paytida uyda bo'lmagan. Mulozim koronavirus tarqalishiga qarshi kurash choralari doirasida shtatda 1,5 ming nafar harbiy xizmatchi joylashtirilgani haqida ma'lum qildi. Bu hafta Viktoriya hukumati komendantlik soati, kunduzi harakatlanishga cheklavlari joriy qildi, ko'plab korxonalarni va deyarli barcha do'konlarni yopdi.

BBC anonim manbaga asoslanib, Eron o'z hududida o'lim va kasallanishlar soni bo'yicha haqiqiy ma'lumotlarni yashirayotganini ta'kidlamogda. Ta'kidlanishicha, Eronda koronavirusdan vafot etganlar soni rasmiy ma'lumotlarda ko'rsatilgan 14,4 mingta emas, balki 42 mingtani tashkil etadi. Eron Sog'liqni saqlash vazirligi statistikasida kasallikka chalinganlar soni ikki barobar kam - 279 ming, deb ko'rsatilgan. BBCda e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, aslida virus bilan ushbu mamlakatda 451 mingdan ziyod kishi kasallangan.